

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING TENDENSIYALARI, DINAMIKASI VA RETROSPEKTIV TAHLILI

Rahimxo‘jayev Rustam Nishonxo‘jayevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra boshlig‘i

y.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Email: [rjaximxo‘jayev@mail.ru](mailto:raximxo‘jayev@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ayollar jinoyatchiligining so‘nggi o‘n yillikdagi dinamikasi, ichki tuzilishi, asosiy determinantlari va profilaktika choralari masalalarini kompleks kriminologik tahlil qiladi. Muallif iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarning o‘zaro ta‘sirini, xalqaro nazariyalar (Lombroso, Adler, Pollak va boshqalar) bilan solishtirgan holda tahlil qiladi hamda genderga sezgir profilaktika, rehabilitatsiya va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Maqola ayollar jinoyatchiligini ijtimoiy tizimdagi o‘zgarishlarning indikatori sifatida baholaydi.

Kalit so‘zlar: ayollar jinoyatchiligi, kriminologiya, gender tenglik, mulkiy jinoyatlar, firibgarlik, oilaviy zo‘ravonlik, retsdiv, ijtimoiy determinantlar, profilaktika.

Annotation: This article provides a comprehensive criminological analysis of female criminality in the Republic of Uzbekistan, focusing on its dynamics over the past decade, internal structure, key determinants, and prevention measures. The author examines the interplay of economic, social, psychological, and cultural factors, comparing them with international theories (Lombroso, Adler, Pollak, etc.), and offers recommendations for improving gender-sensitive prevention, rehabilitation, and legal mechanisms. The paper positions female criminality as an important indicator of changes in the social system.

Key words: female criminality, criminology, gender equality, property crimes, fraud, domestic violence, recidivism, social determinants, prevention.

O‘zbekiston Respublikasida ayollar jinoyatchiligi miqdor jihatdan kamayish tendensiyasini namoyon qilayotgan bo‘lsa-da, uning ichki tuzilmasi va sodir etilish

mexanizmlari murakkablashib bormoqda¹. 2010-yilda 16,3 foizni tashkil etgan ayollar jinoyatchiligi ulushi keyingi davrda izchil pasayib, 2018-yilda 13,6 foizga, 2019–2020-yillarda 11,7–11,8 foizgacha tushgan va 2021–2023-yillarda nisbatan barqaror holatga kelgan holda 2024-yilda 11,9 foiz darajasida qayd etilgan². Ushbu ko‘rsatkichlarning pasayishi bir tomondan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya siyosati, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, bandlikni ta‘minlash choralari va gender tenglikka oid huquqiy mexanizmlarning kuchaytirilishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan jinoyatchilikni ro‘yxatga olish va tasniflash tizimidagi takomillashuvlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning asosiy qismini mulkiy jinoyatlar tashkil etishi aniqlanadi. Xususan, 2024-yilda o‘g‘irlik jinoyatini 1327 nafar, firibgarlikni 784 nafar ayol sodir etgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar ayollar jinoyatchiligining iqtisodiy motivlarga yuqori darajada bog‘liqligini tasdiqlaydi. Talonchilik va bosqinchilik kabi zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarda ayollar ulushi nisbatan past bo‘lib, 52 nafarni tashkil etgan, qasddan odam o‘ldirish va suiqasd holatlarida esa 31 nafar ayol aniqlangan. Ushbu raqamlar ayollar jinoyatchiligi zo‘ravonlikdan ko‘ra iqtisodiy va ijtimoiy harakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Statistika ma‘lumotlarini tahlil qilish orqali aniqlanishicha, 2025-yildagi umumiy jinoyatlar orasidan ayollarning ulushi oxirgi 5 yil ichidagi eng yuqori ko‘rsatkich ekanligi aniqlandi. Qariyb 3 000 dan ortiq ayollar jinoyatlarining asosiy ulushi iqtisodiy sohadagi jinoyatlardir. Kundan kunga rivojlanib borayotgan axborot asrida kiberfiribgarlik, kibertovlamachilik, bundan tashqari, kiberbulling, fishing singari jinoyatlarning orasida ham ayollarning ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda firibgarlik jinoyatlarining yangi shakllari, xususan internet orqali amalga oshiriladigan moliyaviy firibgarlik, kredit va

¹ Ronald V. Clarke, Derek B. Cornish. *The Reasoning Criminal: Rational Choice Perspectives on Offending*. Springer, 1986.

² <https://iiv.uz> *Jinoyatchilik statistikasi (2010–2024 yillar)*.

mikromoliyaviy tizimlardan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklar, onlayn savdo platformalarida ishonchni suiiste'mol qilish kabi ko'rinishlar kengayib bormoqda, bu esa ayollar jinoyatchiligining raqamli transformatsiyasini anglatadi.

Retsidiv jinoyatchilik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ayollar ulushi 6,6 foizdan 10,2 foizgacha o'zgarib turishi, retsidiv darajasining 28,7 foiz atrofida bo'lishi ushbu toifadagi jinoyatchilar bilan ishlashda rehabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, jazoni o'tab chiqqan ayollarning jamiyatga moslashuvida ijtimoiy stigma³, ish bilan ta'minlanishdagi qiyinchiliklar, oilaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi kabi omillar ularning qayta jinoyat sodir etish xavfini oshiradi.

Ayollar jinoyatchiligining sabablari kompleks va ko'p qatlamli harakterga ega bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Iqtisodiy omillar orasida kambag'allik, daromadlarning barqaror emasligi, yashirin ishsizlik, ayniqsa norasmiy sektor ulushining yuqoriligi muhim rol o'ynaydi. Qishloq hududlarida yashovchi ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi ularni mulkiy jinoyatlarga jalb etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mehnat migratsiyasi ham muhim determinant bo'lib, oilaning asosiy daromad manbai bo'lgan erkaklarning chet elga ketishi natijasida ayollar zimmasiga iqtisodiy mas'uliyat yuklanadi va bu ularni noqonuniy faoliyatga moyil qiladi.

Ijtimoiy omillar doirasida oila institutidagi muammolar alohida ahamiyat kasb etadi. Ajralishlar sonining ortishi, oilaviy nizolar, maishiy zo'ravonlik, qarindoshlar tomonidan bosim o'tkazilishi, meros va mulkiy huquqlar bilan bog'liq nizolar ayollarning deviant xulq-atvor⁴ga kirib borishiga sabab bo'ladi. Psixologik omillar, xususan stress, depressiya,

³ *Stigma* — bu jamiyatda muayyan shaxs yoki guruhga nisbatan shakllangan salbiy qarash, tamg'a, yorliq yoki kamsitishdir. U insonni ijtimoiy xususiyatlari (kasallik, tashqi ko'rinish, madaniyat, jins) tufayli "past" yoki "xavfli" deb hisoblab, ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Sinonimlari: tamg'a, dog', yorliq, kamsitish.

⁴ Deviant xulq-atvor (lotinchada deviation — og'ish) — bu jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy, axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlardir. Bunday xulq-atvor ko'pincha jamiyatning umumiy tartib-qoidalariga zid keladi va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

travmatik tajribalar, o'zini ijtimoiy jihatdan himoyasiz his qilish holatlari ham jinoyatchilikka olib keluvchi muhim omillar qatoriga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayol jinoyatchilarning muhim qismi ilgari zo'rvonlik qurboni bo'lgan yoki og'ir psixologik bosimni boshdan kechirgan shaxslardan iborat.

Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligining zamonaviy tendensiyalaridan biri uning intellektual va yashirin shakllarining ortib borayotganidir. An'anaviy jinoyatlar bilan bir qatorda moliyaviy piramidalar tashkil etish, hujjatlarni qalbakilashtirish, bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik, elektron tijoratdagi noqonuniy operatsiyalar kabi murakkab sxemalar paydo bo'lmoqda. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi metod va texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligi darajasi nisbatan past bo'lsa-da, uning determinantlari global tendensiyalar bilan uyg'unlashib bormoqda. Xususan, iqtisodiy tengsizlik, gender rollarining transformatsiyasi, urbanizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari ayollar jinoyatchiligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston sharoitida jinoyatchilikni oldini olish choralarini ishlab chiqishda nafaqat milliy, balki xalqaro tajribani ham inobatga olish muhim hisoblanadi⁵.

Huquqiy tartibga solish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan muhim vositalardan biridir. Oilaviy zo'rvonlikning kriminalizatsiya qilinishi, himoya orderlari tizimining joriy etilishi, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Biroq jinoyatchilikni kamaytirish faqat repressiv choralar bilan emas, balki profilaktik va rehabilitatsion mexanizmlar orqali amalga oshirilishi lozim. Shu ma'noda, ayollarni kasbga o'qitish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish, huquqiy savodxonlikni oshirish kabi kompleks choralar muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵ United Nations Office on Drugs and Crime. *Handbook on Women and Imprisonment*. – New York, 2014

Umuman olganda, ayollar jinoyatchiligi ijtimoiy tizimdagi muammolarni aks ettiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, uning kamayishi jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va huquqiy madaniyat darajasiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlar ushbu yo‘nalishda ijobiy natijalar berayotgan bo‘lsa-da, jinoyatchilikning yangi shakllari va omillari paydo bo‘layotganini hisobga olib, ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, kompleks profilaktika tizimini takomillashtirish va genderga sezgir yondashuvni keng joriy etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Ayollar jinoyatchiligi kriminologik jihatdan erkaklar jinoyatchiligidan nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlari, balki sifat jihatlari, motivatsion mexanizmlari va ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog‘liqligi orqali tubdan farqlanadi. Empirik kuzatuvlar va statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar aksariyat hollarda instrumental harakterga ega bo‘lib, ya‘ni aniq maqsadga — moddiy ehtiyojni qondirish, mavjud muammodan chiqish yoki ijtimoiy bosimdan qutulish kabi natijaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu jihatdan ayollar jinoyatchiligi ko‘pincha utilitar xususiyat kasb etadi, erkaklarda esa ekspressiv, ya‘ni affektiv va zo‘ravonlikka asoslangan xatti-harakatlar ustunlik qiladi. Bu farq jinoyat sodir etish mexanizmlarida ham namoyon bo‘ladi: ayollar ko‘proq yashirin, ishonchga asoslangan, murakkab bo‘lmagan, biroq ijtimoiy munosabatlardan samarali foydalanishga tayanadigan usullarni qo‘llaydi.

Ayol jinoyatchining psixologik portreti tahlil qilinganda, unda empatiya, kommunikativlik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi kuzatiladi. Aynan shu jihatlar ba‘zi hollarda jinoyat sodir etishda vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular ishonchli aloqa o‘rnatish, ijtimoiy rollardan foydalanish va manipulyativ strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Ayollar jinoyatchiligining yana bir muhim jihati uning situatsion harakterga egaligidir. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatni oldindan uzoq muddat rejalashtirishdan ko‘ra, mavjud vaziyat ta‘sirida, qisqa muddatli qarorlar asosida sodir etadi. Bu holat ularning ijtimoiy rollarga bog‘liqligi, mas‘uliyat yuklamasi va stressga nisbatan sezgirligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, oilaviy muhitdagi ziddiyatlar, iqtisodiy yetishmovchilik, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar va psixologik bosim ayollarda

deviant xulq shakllanishiga turtki beruvchi asosiy omillar qatoriga kiradi. Yolgʻiz onalik instituti ham bu borada alohida eʼtiborga loyiq boʻlib, unda iqtisodiy va emotsional yuklama bir shaxs zimmasiga tushadi va bu jinoyatchilik xavfini oshiruvchi faktor sifatida namoyon boʻladi.

Nazariy jihatdan ayollar jinoyatchiligini izohlashda turli ilmiy maktablar oʻz yondashuvlarini taklif etgan. Klassik kriminologiya vakili boʻlgan Chezarie Lombroso ayollar jinoyatchiligini biologik determinatsiya bilan izohlashga uringan va jinoyatchi ayollarni “normadan ogʻgan” shaxslar sifatida talqin qilgan⁶. Biroq zamonaviy kriminologiya bu yondashuvni yetarli darajada asoslangan deb hisoblamaydi va uni tanqidiy qayta koʻrib chiqadi. Keyingi bosqichda Freda Adler tomonidan ilgari surilgan konsepsiya ayollar jinoyatchiligini gender rollarining transformatsiyasi bilan bogʻlaydi. Uning “Sisters in Crime” asarida taʼkidlanishicha, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligi ortishi bilan ular jinoyatchilikka olib boruvchi imkoniyatlar maydoniga ham kengroq kirib boradi⁷. Bu jarayon maskulinizatsiya⁸ bilan emas, balki ijtimoiy strukturalarning oʻzgarishi bilan izohlanadi. Shuningdek, Otto Pollak ayollar jinoyatchiligini “yashirin jinoyatchilik” fenomeni orqali tushuntirib, jamiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ayollarga nisbatan nisbatan yumshoqroq munosabati statistik koʻrsatkichlarning past boʻlishiga olib kelishini taʼkidlaydi⁹.

Zamonaviy yondashuvlar esa ayollar jinoyatchiligini multifaktorli hodisa sifatida koʻrib, biologik, ijtimoiy va psixologik determinantlarning oʻzaro integratsiyasini asosiy omil sifatida belgilaydi. Ayniqsa, travma nazariyasi doirasida oʻtkazilgan tadqiqotlar ayol jinoyatchilarning sezilarli qismi ilgari zoʻravonlik, suiisteʼmol yoki ijtimoiy beqarorlikni

⁶ Lombroso C. *The Female Offender*. – New York: Appleton, 1895.

⁷ Adler F. *Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal*. – New York: McGraw-Hill, 1975.

⁸ Maskulinizatsiya (lotincha masculinus — erkak, erkak jinsiga oid) — bu ayol organizmida erkaklarga xos boʻlgan ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo boʻlish va rivojlanish jarayonidir.

⁹ Pollak O. *The Criminality of Women*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1950.

boshdan kechirganini ko'rsatadi. Bu esa jinoyatchilikni nafaqat huquqbuzarlik, balki ijtimoiy muammolarning natijasi sifatida ko'rish zarurligini anglatadi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi nuqtai nazaridan esa ayollar jinoyatchiligi ularning yaqin ijtimoiy muhitida kuzatilgan xulq-atvor modellari, ayniqsa oilaviy muhitdagi zo'ravonlik va noqonuniy faoliyat tajribasi orqali shakllanishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ayollar jinoyatchiligi yuqoridagi nazariy yondashuvlar bilan mos tushuvchi xususiyatlarga ega. Xususan, mehnat migratsiyasi jarayonlari, iqtisodiy beqarorlik, oilaviy rollarning o'zgarishi va ijtimoiy nazorat institutlarining transformatsiyasi ayollar jinoyatchiligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Migrant ayollar orasida hujjatlarni qalbakilashtirish, noqonuniy mehnat faoliyati bilan bog'liq jinoyatlar uchrashi, iqtisodiy qiyinchilikdagi ayollar orasida esa firibgarlik va o'zlashtirish kabi jinoyatlarning ko'payishi ushbu tendensiyaning amaliy ifodasidir. Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligi ko'pincha yashirin harakterga ega bo'lib, uning real ko'lami rasmiy statistikadan kengroq bo'lishi mumkinligi ham ehtimoldan xoli emas.

Qishloq hududlarida yashovchi ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarning torligi, yer va mulk resurslariga egalik qilishdagi cheklovlar hamda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning ijtimoiy-iqtisodiy zaifligini kuchaytiradi. Bunday sharoitda ayollar ko'pincha oilaviy byudjetni saqlab qolish yoki farzandlarini ta'minlash maqsadida mulkiy jinoyatlarga qo'l uradi. Shu bilan birga, gender mehnat taqsimoti natijasida ayollarning past haq to'lanadigan sohalarda bandligi ularning iqtisodiy mustaqilligini cheklaydi va bu holat deviant xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Zamonaviy iqtisodiy kriminologiya doirasida bu jarayon "iqtisodiy marginalizatsiya" tushunchasi¹⁰ orqali izohlanadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan United Nations Office on Drugs and Crime va UN Women tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ayollar jinoyatchiligining global

¹⁰ Iqtisodiy marginalizatsiya — bu jamiyatdagi muayyan guruhlar yoki shaxslarning asosiy iqtisodiy jarayonlardan, resurslardan va imkoniyatlardan chetlatilishi holatidir. Bu jarayon natijasida odamlar mehnat bozorida munosib o'rin topa olmaydilar va daromad manbalaridan mahrum bo'ladilar.

determinantlarini tizimli ravishda tasdiqlaydi¹¹. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra, gender tengsizligi, iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi va ijtimoiy himoya tizimining yetarli emasligi ayollarni jinoyatchilikka jalb etuvchi asosiy omillar hisoblanadi¹². Bundan tashqari, oilaviy zo‘ravonlik va ijtimoiy izolyatsiya ayollarning jinoyat sodir etish xavfini sezilarli darajada oshiradi¹³. Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy bosim va oilaviy konfliktlar ayniqsa firibgarlik va moliyaviy jinoyatlar ko‘rsatkichining oshishiga olib keladi¹⁴.

Q.Abdurasulova va D.Mirazov kabi olimlar ayollar jinoyatchiligini alohida tizim sifatida o‘rganib, uning determinantlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, ayollar jinoyatchiligi biologik predispozitsiyalar, ijtimoiy muhit va psixologik omillarning sintezi natijasida yuzaga keladi¹⁵. Ayniqsa, psixologik omillar orasida depressiya, surunkali stress, travmatik tajribalar va o‘zini ijtimoiy jihatdan himoyasiz his qilish holatlari muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy psixokriminologik tadqiqotlar ayol jinoyatchilarning sezilarli qismi ilgari zo‘ravonlik qurboni bo‘lganini yoki uzoq muddatli psixologik bosimni boshdan kechirganini ko‘rsatadi, bu esa jinoyatchilikni ikkilamchi reaksiya sifatida talqin qilish imkonini beradi¹⁶.

Firibgarlik jinoyatlarida ayollar ulushining yuqoriligi ularning ijtimoiy aloqalardan foydalanish qobiliyati bilan bog‘liq. Ular ko‘pincha ishonchni qo‘lga kiritish, yolg‘on

¹¹ United Nations Office on Drugs and Crime. *Handbook on Women and Imprisonment*. – New York, 2014

¹² UN Women. *Progress of the World’s Women 2015–2016*. – New York, 2015

¹³ World Health Organization. *Violence Against Women*. – Geneva, 2021

¹⁴ World Bank. *Gender Dimensions of Economic Inequality in Europe and Central Asia*. – Washington, 2020

¹⁵ Abdurasulova Q. *Ayollar jinoyatchiligi va uning kriminologik xususiyatlari*. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2018

¹⁶ Mirazov D. *Kriminologiya: umumiy va maxsus qism*. – Toshkent: TDYU, 2020

ma'lumotlar taqdim etish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki raqamli platformalardan foydalanish orqali jinoyat sodir etadi. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi ayollar jinoyatchiligining yangi shakllarini yuzaga keltirib, uni an'anaviy shakllardan murakkab, intellektual va yashirin ko'rinishlarga olib chiqmoqda. Bu jarayon kiberkriminologiya doirasida o'rganilib, ayollarning onlayn muhitda jinoyat sodir etishdagi ishtiroki asta-sekin ortib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ayollar jinoyatchiligi biror yagona sabab bilan emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar majmuasi bilan belgilanadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish jinoyatchilikka qarshi samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlillar yirik davlatlarda ayollar jinoyatchiligi va penitensiar tizimdagi ayollar soni yuqori ekanligini ko'rsatadi. Masalan, AQShda ayol mahkumalar soni 200 mingdan ortiq bo'lib, bu ko'rsatkich global miqyosda eng yuqorilardan biri hisoblanadi, Xitoyda esa 140 mingdan ortiq ayol ozodlikdan mahrum etilgan¹⁷. Braziliya va Rossiyada ham ayol mahkumalar soni sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu mamlakatlarda narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlar, iqtisodiy huquqbuzarliklar va ijtimoiy tengsizlik omillari asosiy rol o'ynaydi. Ushbu davlatlarda retsdiv ko'rsatkichlarining 29–33 foiz oralig'ida bo'lishi penitensiar tizimdan keyingi rehabilitatsiya mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi¹⁸. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan davlatlarda ayollar uchun alohida rehabilitatsiya dasturlari, psixologik yordam va ijtimoiy reintegratsiya mexanizmlarining joriy etilishi retsdiv darajasini pasaytirishga xizmat qilmoqda¹⁹.

O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligi va unga ta'sir etuvchi omillarga qarshi kurashish sohasida huquqiy tartibga solish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada transformatsiyaga uchrab, xalqaro standartlarga yaqinlashish yo'lida izchil rivojlanmoqda. Milliy qonunchilikning konseptual asoslari qonuniylik, tenglik, insonparvarlik va odillik

¹⁷ United Nations Office on Drugs and Crime. *World Prison Population List*. – Vienna, 2023

¹⁸ World Prison Brief. *Global Prison Statistics Database*. – 2024

¹⁹ World Bank. *Inequality and Crime Report*. – Washington, 2021

tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgan bo‘lib, bu prinsiplar nafaqat jinoyat-huquqiy siyosatning umumiy yo‘nalishini belgilaydi, balki genderga sezgir yondashuvni joriy etish uchun normativ asos vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish va ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar tizimli islohotlarning markaziy elementiga aylangan.

2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son qonun ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni aniqlash, oldini olish va unga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlarini belgilab berdi. Mazkur normativ-huquqiy hujjat doirasida himoya orderlari instituti joriy etilib, jabrlanuvchilarga tezkor huquqiy himoya ko‘rsatish imkoniyati yaratildi²⁰. Keyingi bosqichda, 2023-yilda Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik alohida huquqbuzarlik turi sifatida normativ mustahkamlandi. Xususan, Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi orqali ushbu xatti-harakatni jinoiy javobgarlikka tortish mexanizmi belgilandi²¹, bu esa ilgari faqat ma‘muriy javobgarlik doirasida ko‘rib chiqilgan holatlarni yanada qat‘iy tartibga solish imkonini berdi. Shu bilan birga, jinsiy ta‘qib va ta‘qib qilish kabi xatti-harakatlarning huquqiy jihatdan tan olinishi zamonaviy kriminologik yondashuvlarga mos keluvchi muhim qadam bo‘ldi.

Xalqaro huquqiy tizim bilan uyg‘unlashuv jarayonida O‘zbekiston qonunchiligi AQSh doirasida ishlab chiqilgan gender tengligi va zo‘ravonlikka qarshi kurashish standartlariga moslashmoqda. Shu bilan birga, Istanbul Convention prinsiplari bilan konseptual yaqinlik kuzatiladi, xususan profilaktika, himoya, jinoiy javobgarlik va kompleks siyosat yuritish tamoyillari milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda. Biroq, ayrim ilg‘or yondashuvlar, masalan femitsidni alohida

²⁰ “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son qonun <https://lex.uz/uz/docs/-4494709?ONDATE=19.10.2024>

²¹ Qonunchilik milliy ma‘lumotlar bazasi, 22.10.2024-y 03/24/978/0835-son

jinoyat tarkibi sifatida kriminalizatsiya qilish masalasi hali to‘liq huquqiy yechim topmagan bo‘lib, bu borada ilmiy va amaliy doiralarda muhokamalar davom etmoqda.

O‘zbekistonda ham profilaktika va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ichki ishlar organlari tomonidan olib borilayotgan profilaktik faoliyat, xususan “Ayollar daftari” va “Temir daftar” kabi ijtimoiy monitoring tizimlari ehtiyojmand qatlamlarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish imkonini bermoqda. Ushbu mexanizmlar orqali ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi ayollar bilan individual ishlash, ularni bandlikka jalb etish, psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa jinoyatchilikni faqat repressiv choralar orqali emas, balki ijtimoiy profilaktika asosida kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Davlat siyosatining strategik yo‘nalishlari doirasida ham ayollarni qo‘llab-quvvatlash muhim ustuvorlik sifatida belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasi doirasida gender tenglik mexanizmlarini joriy etish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tadbirkor ayollar sonining ortib borayotgani ularning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirib, jinoyatchilikka olib keluvchi iqtisodiy omillarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Ayollar jinoyatchiligini aniqlash, fosh etish va oldini olish masalalari zamonaviy kriminalistika va kriminologiya fanlarida alohida metodologik yondashuvni talab etuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayon sifatida baholanadi, chunki ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ko‘pincha yashirin, vaziyatga moslashuvchan va ijtimoiy rollar bilan niqoblangan shaklda namoyon bo‘ladi. Shu sababli tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida genderni sezgir taktik usullarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligida sheriklik elementi yuqori ulushni tashkil etadi, ya’ni ular ko‘pincha asosiy ijrochi emas, balki yordamchi yoki vositachi rolda ishtirok etadi, bu esa jinoyatni fosh etishda dalillar zanjirini tiklashni murakkablashtiradi. Shu nuqtai nazardan, guvohlarni so‘roq qilish jarayonida psixologik noziklik, kommunikativ yondashuv va ishonch muhitini yaratish ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki ayollar

ko‘pincha ijtimoiy bosim, qo‘rquv yoki oilaviy bog‘liqlik sababli to‘liq ko‘rsatma bermasligi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda integratsiyalashgan dasturlar eng samarali natija beradi. Xususan, United Nations Office on Drugs and Crime tomonidan ilgari surilgan “INSPIRE” tashabbusi zo‘ravonlikni oldini olishning dalillarga asoslangan strategiyalarini o‘z ichiga oladi va u ta‘lim, ijtimoiy himoya, qonunchilik va jamoatchilik ishtirokini birlashtiradi²². Shuningdek, United Nations Population Fund hamda Organization for Security and Co-operation in Europe bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlar maktablar, mahallalar va ijtimoiy institutlar orqali zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan bo‘lib, ular genderga sezgir yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi²³.

O‘zbekistonda profilaktika inspektorlarining faoliyati, mahalla institutining ishtiroki va oliy ta‘lim muassasalarida ayollar masalalari bo‘yicha mutaxassislarning faoliyatini kengaytirish orqali jinoyatchilikni erta bosqichda aniqlash va oldini olish mexanizmlari shakllanmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi ayollar bilan individual ishlash, ularning muammolarini tizimli hal etish va reintegratsiya qilishga qaratilgan dasturlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq xalqaro tajriba bilan qiyoslaganda, reabilitatsiya va postpenitensiar qo‘llab-quvvatlash tizimi hali to‘liq shakllanmaganligi kuzatiladi. Ayniqsa, jazoni o‘tab chiqqan ayollarni jamiyatga qayta moslashtirish, ularni ish bilan ta‘minlash, stigmatizatsiyani kamaytirish va psixologik tiklash mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda faqat jazolash emas, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat ustuvor bo‘lishi lozim. Shu ma’noda,

²² United Nations Office on Drugs and Crime. *INSPIRE: Seven Strategies for Ending Violence Against Children*. – Vienna, 2018

²³ Organization for Security and Co-operation in Europe. *Preventing Violence Against Women: Policy Framework*. – Vienna, 2020

kriminologik profilaktika, kriminalistik taktika va ijtimoiy siyosat o‘zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilgandagina barqaror natijalarga erishish mumkin.

Xalqaro tajriba muhim metodologik asos beradi. Masalan, European Union mamlakatlarida joriy etilgan gender tenglik ta‘minlanishi mexanizmi davlat byudjetini shakllantirishda gender omillarini hisobga olish orqali ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi²⁴, bu esa uzoq muddatda jinoyatchilikni kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. United Statesda qo‘llanilayotgan jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan yondashuv esa jinoyat qurbonining manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda, uning huquqiy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini kompleks qondirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa oilaviy zo‘ravonlik holatlarida yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda²⁵. Shuningdek, Skandinaviya davlatlarida probatsiya va alternativ jazolar tizimi keng rivojlangan bo‘lib, ayollarni qamoqqa olish o‘rniga ularni jamiyatdan ajratmagan holda nazorat qilish va reabilitatsiya qilish amaliyoti ustuvor hisoblanadi²⁶.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirish ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Xususan, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralari kengaytirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, mikrokreditlash tizimini takomillashtirish va bandlikni ta‘minlash orqali jinoyatchilikning iqtisodiy ildizlarini kamaytirish mumkin. Huquqiy ta‘limni kuchaytirish esa ayollarning o‘z huquqlarini bilishi va himoya qila olishini ta‘minlab, ularning jinoyat qurboni yoki subyekti bo‘lish ehtimolini pasaytiradi. Shu bilan birga, oila institutini mustahkamlash, oilaviy nizolarni mediatsiya orqali hal etish, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali zo‘ravonlik va deviant xulqning oldini olish mumkin.

Ma‘naviy-ma‘rifiy omillar ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatda gender tengligi, o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas‘uliyat qadriyatlarini shakllantirish uzoq muddatli profilaktika siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta‘lim tizimida

²⁴ European Institute for Gender Equality. *Gender Budgeting in the EU*. – Brussels, 2022

²⁵ United States Department of Justice. *Victim-Centered Justice Approach*. – Washington, 2020

²⁶ Council of Europe. *Probation and Alternatives to Imprisonment in Europe*. – Strasbourg, 2021

genderga sezgir dasturlarni joriy etish, ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Xalqaro hamkorlik ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi, chunki global tajriba almashinuvi, qo‘shma dasturlar va ilmiy tadqiqotlar orqali milliy siyosatni yanada takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi masalasi bo‘yicha kriminologiya, sotsiologiya va psixologiya fanlari kesishmasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalarda ushbu hodisa kompleks tizim sifatida o‘rganilib, uning sabab-oqibat aloqalari, dinamikasi va profilaktika mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda muhim ilmiy xulosalar beradi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ayollar jinoyatchiligini kamaytirish masalasi faqat jinoyat-huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, keng qamrovli ijtimoiy siyosatni talab etadi. Oila institutini mustahkamlash, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirish, psixologik yordam va rehabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish orqali barqaror natijalarga erishish mumkin. Shu tarzda shakllangan kompleks yondashuv nafaqat ayollar jinoyatchiligini kamaytiradi, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligi so‘nggi o‘n yilliklarda barqaror, biroq murakkab ijtimoiy-kriminologik dinamikaga ega hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning strukturasi erkaklar jinoyatchiligidan sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi. Ayollar jinoyatchiligi asosan mulkiy jinoyatlar — o‘g‘rilik, firibgarlik, o‘zlashtirish kabi turlarda jamlangan bo‘lib, og‘ir zo‘ravonlik jinoyatlari nisbatan kam ulushni tashkil etadi. Bu holat ayollarning jinoyatga kirib borish mexanizmi ko‘proq vaziyatga bog‘liq, iqtisodiy bosim va psixologik stress bilan shartlangan ekanligini ko‘rsatadi. Kriminologik tahlil ayollar jinoyatchiligining impulsiv характери, oilaviy va ijtimoiy bosim ostida shakllanishi hamda ko‘pincha sheriklik yoki vositachilik ko‘rinishida namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik, ishsizlik, mehnat migratsiyasi, moliyaviy beqarorlik va iqtisodiy resurslarga cheklangan kirish ayollar jinoyatchiligini shakllantiruvchi asosiy determinantlar hisoblanadi. Ijtimoiy omillar ichida oilaviy nizolar, ajralishlar, gender stereotiplar, meros va huquqiy tengsizlik bilan bog‘liq muammolar muhim o‘rin egallaydi. Ma‘naviy-psixologik omillar esa huquqiy savodxonlikning pastligi, ta‘lim darajasi, stress, depressiya va travmatik hayotiy tajribalar bilan izohlanadi. Bu esa ayollar jinoyatchiligini faqat huquqiy emas, balki kompleks ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi.

Ayollar jinoyatchiligi murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik ijtimoiy hodisa bo‘lib, uni faqat repressiv yondashuv orqali bartaraf etish mumkin emas. Ushbu hodisani kamaytirish uchun kompleks strategiya — iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, oilaviy institutni mustahkamlash va gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan siyosatni uyg‘unlashtirish zarur. Mazkur yondashuv nafaqat ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligi, huquqiy madaniyati va xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.